

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariiga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagи bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktebalarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbanovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Noramsmiy va informal ta'limi tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раймова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	

5E MODELI ASOSIDA DARSNI LOYIHALASH: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Ushbu maqlada 5E modeli asosida darsni loyihalashning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, muayyan mavzu asosida har bir bosqich bo'yicha dars jarayonini loyihalash mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: 5E modeli, o'quv jarayoni, o'quv faoliyati, Engage (Qiziqtirish), Explore (O'rganish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Kengaytirish), Evaluate (Baholash).

Abstract: This article discusses the scientific and pedagogical foundations of lesson design based on the 5E model. It also presents the content of designing the lesson process for each stage based on a specific topic.

Key words: 5E model, learning process, learning activity, Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-педагогические основы проектирования уроков на основе модели 5E. Также представлено содержание проектирования процесса урока для каждого этапа на основе определённой темы.

Ключевые слова: модель 5Е, процесс обучения, учебная деятельность, вовлечение, исследование, объяснение, расширение, оценка.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Bu, o'z navbatida, har bir pedagogdan ta'lif-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni, yuksak ma'naviy yetuklik va pedagogik mahoratga ega bo'lishni, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni mukammal egallashni, shuningdek, zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etmoqda.

Kuzatilgan tajribalar asosida metodik tayyorgarlikning nazariy va amaliy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Nazariy metodik tayyorgarlik – bu tegishli fanni o'qitishning umumiyo qonuniyatları, tushunchalari va nazariyalari, shuningdek, fanning mazmunini bilishning ma'lum darajasiga ega bo'lishdir. Shu bilan birga, o'qituvchining mavzu mazmuniga doir tushuncha va usullarni, pedagogik harakatlarni tavsiflash, mакtab darsliklarining mazmunini, o'quv materiallarining izchilligi va ilmiyligini, ularning o'quvchilar uchun tushunarli ekanligini tahlil qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ko'rindiki, nazariy tayyorgarlik – bu fanning nazariy asoslarini chuqr bilish demakdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Z. Artikbayeva esa metodik tayyorgarlik darajasini ta'lif jarayonining ilmiyligi va tizimli yondashuv bilan bog'liq, deb ta'riflaydi^[2].

G. E. Karlibayeva pedagogik tayyorgarlikni ijobiy munosabat, kasbiy motivlar, kasbga oid bilim va ko'nikmalar, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llashga xizmat qiluvchi tajribalar majmuasi sifatida izohlaydi. U o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida shaxsiy xususiyatlar va kasbiy kompetensiylar muhim o'r'in tutishini ko'rsatadi^[3].

M. T. Mirsoliyevanig fikricha, kasbiy tayyorgarlik – bu nazariy bilim, amaliy ko'nikma, ma'naviy-axloqiy sifatlar va psixologik hamda jismoniy tayyorgarlik darajasining uyg'unligidir. U kasbiy tayyorgarlikni Davlat ta'lif standartlari asosida shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi^[4].

I. Y. Raxmonovning ta'kidlashicha, o'qituvchining metodik tayyorgarligi – bu ta'lif jarayoni va uning nati-jasidir. U ikki maqsadga xizmat qiladi: insonda bilimlar tizimi va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish hamda kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallash^[5].

Garchi ushbu tadqiqotlar asosan oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qaratilgan bo'lsa-da, ularda ilgari surilgan g'oya va xulosalardan o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik kuzatuvlarimiz o'quv jarayonida quyidagi pedagogik muammolar tez-tez uchrashini ko'rsatdi: o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishining pastligi; dars vaqtida intizom muammolar; fikr almashish yoki bahs-munozaramuhitining yo'qligi; o'quvchilarning individual rivojlanish darajalario'rta sidagi farqlar; resurslarning yetishmasligi. Amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi bu muammolarni differential yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan metodlar (AKT, klaster, konsept xarita, "aqliy hujum"), motivatsiya va baholashning innovatsion shakllari (o'zaro baholash, portfolyo, reyting tizimi) orqali samarali hal qila oladi. Ko'rindiki, amaliy tayyorgarlik – bu o'qituvchining o'quv jarayonida pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorligidir. Shuningdek, amaliy tayyorgarlik – bu o'qituvchining o'quv jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni samarali hal etish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, zamonaviy metod va vositalarni to'g'ri tanlay olishini ham o'z ichiga oladi. Bu tayyorgarlik quyidagilarni qamrab oladi: darsni samarali tashkil etish; o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish; tarbiyaviy va didaktik metodlardan to'g'ri foydalanish; nizoli vaziyatlarni hal qilish; innovatsion texnologiyalarni qo'llash.

Ilmiy manbalarning empirik tahlili amaliy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashtirish imkonini berdi:

- didaktik tayyorgarlik – darsni to'g'ri rejalshtirish, maqsadga yo'naltirilgan metodlarni tanlash va qo'llash, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish;
- psixologik tayyorgarlik – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ular bilan sog'lom psixologik muhitda ishlash;
- kommunikativ tayyorgarlik – samarali muloqot olib borish, interaktiv usullardan foydalanish;
- innovatsion tayyorgarlik – yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati; refleksiv tayyorgarlik – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va doimiy rivojlanishga intilish.

Yuqoridagilardan ko'rindiki, o'qituvchining amaliy tayyorgarligi – bu uning kasbiy muvaffaqiyatining asosi bo'lib, u ta'lif jarayonining sifatli tashkil etilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar, tajriba almashish, trening va amaliy seminarlar orqali boyitish muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq, zamonaviy o'qituvchi o'qitish jarayonini tashkil qilishni, darsning mohiyati va vazifalarini chuqur anglashi hamda bu vazifalarni ado etish uchun darsning mazmuni, maqsadga erishish yo'llari va vositalarini puxta belgilab olishi, ta'lifning mazmun-mohiyatini yoritib berishga doir barcha pedagogik tushunchalarni bilishi, shundan kelib chiqadigan didaktik va metodik talablarni bajarishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qitish jarayoni – qo'yilgan maqsadga erishish, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ma'nnaviy kamolotga yetishishni nazarda tutgan o'qituvchi va o'quvchilarning tartibga solingan o'zaro birgalikdagi faoliyatidir. Bunday faoliyatni samarali tashkil etish uchun dars jarayonini oldindan puxta rejalshtirish, ya'ni uni maqsadga yo'naltirilgan tarzda loyihalash zarur bo'ladi. Loyihalashtirilgan dars esa belgilangan maqsadga erishishga xizmat qiluvchi, bosqichma-bosqich tashkil etilgan o'qitish faoliyatining asosidir.

Loyihalashtirish orqali o'qituvchi dars jarayonini boshqarish yo'llarini belgilaydi, shuningdek, yangi materialni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini nazorat qiladi va bu nazorat zamirida ularning faoliyatini baholab boradi. Bu orqali bilim berish va bilim olish faoliyatini tahlil qilinadi hamda ko'zlangan maqsad nechog'li amalga oshganligi aniqlanadi. Keltirilgan izohlar va pedagogik kuzatuvlar asosida dars loyihasini tayyorlash uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini bajarishi ko'zlangan natijalarga erishish imkonini berishi aniqlandi:

- dars bosqichlarini rejalshtirish – kirish, asosiy va yakuniy bosqichlarni tartib bilan belgilash, har bir bosqichda bajariladigan faoliyat, savollar va topshirqlarni aniqlash;
- dars mavzusini aniqlash – dars mavzusi aniq, sodda va tushunarli bo'lishi, o'quvchilarning hayoti va oldingi bilimlari bilan bog'liq bo'lishi;
- maqsadni aniqlash – dars maqsadi, kutilayotgan natijalar va kompetensiyalar belgilanadi ("O'quvchi dars yakunida nimani bilishi, tushunishi va qo'llay olishi kerak?");
- mavzuni tahlil qilish – asosiy tushunchalar, atamalar, bog'liqliklar aniqlanadi, avvalgi bilimlar bilan aloqadorlik o'rganiladi;
- avvalgi bilimlarga tayanuvchi bog'lanishlarni aniqlash – yangi mavzuga ko'rik vazifasini bajaradi va motivatsiyani oshiradi;
- o'quv faoliyatni turlarini tanlash – guruhsda ishlash, tajriba o'tkazish, savollarga javob berish, muammoni hal qilish kabi faoliyatlar tanlanadi;



- dars mazmunini tanlash – o'quv dasturiga mosligi, asosiy tushunchalarni ajratish, yoshga moslashtirish, avvalgi bilimlar bilan bog'liqlik, hayotiy ahamiyat, hajm va murakkablik darajasi, tarbiya va kompetensiya yondashuviga mosligi;
- o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- metod va strategiyalarni tanlash – guruhli ish, muammoli vaziyat, rolli o'yin, 5E modeli, interaktiv usullar;
- kerakli vosita va resurslarni tayyorlash – slaydlar, plakatlar, videolar, ish varaqalari;
- vaqtini aniq taqsimlash;
- o'qituvchi va o'quvchining kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish – kognitiv, affektiv va psixomotor natijalar;
- baholash mezonlarini ishlab chiqish – og'zaki, yozma, test, kuzatish, o'zaro baholash;
- refleksiya va tahlil – "Nimani bilib oldim?", "Qayerda qynaldim?" savollari asosida o'quvchilar va o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida mulohazalar natijasida o'qitish jarayonini 5E modeli asosida loyihalash kabi vazifalar dolzarblashi. 5E modeli o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularga o'z bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradigan samarali yondashuvdir. 5E modeli asosida dars jarayonini loyihalash – bu interaktiv va o'quvchini faol ishtirok ettirishga qaratilgan metodologiyadir. Bu model 5 bosqichdan iborat: Engage (Jalb etish), Explore (Tadqiq qilish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Takomillashtirish), Evaluate (Baholash). Quyida 4-sinf Tabiiy fanidan "Tabiatda suv aylanishi" mavzusida har bir bosqich bo'yicha dars jarayonini loyihalash mazmuni keltiriladi. Engage (Jalb etish) bosqichida o'quvchilarda yangi mavzu bo'yicha qiziqish uyg'otish, ularni mavzuga jalb qilish lozim. Shuningdek, o'quvchilarga savollar berish, mavzu bilan bog'liq qisqacha video yoki hikoya ko'rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. Maqsad: o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mavzuga qiziqish uyg'otish, avvalgi bilimlarini aniqlash. Mazkur bosqichda savol-javob, qiziqarli video yoki rasm ko'rsatish, hayotiy muammo yoki misol keltirish kabi usullardan foydalanish mumkin. Vosita sifatida multimedia (video)dan foydalanish ko'zlangan natijaga erishish imkonini beradi. O'qituvchi quyidagi savol orqali o'quvchilarni mulohaza yuritishga, jamoa bo'lib ishlashga undaydi: "Daryolar va dengizlar har yili suv bug'lanshiga qaramay nima uchun qurib qolmaydi?". Shuningdek, suv aylanishini tasvirlovchi qisqa multfilm yoki animatsiya ko'rsatiladi. O'quv topshirig'i: Suv qaerga g'oyib bo'ldi? Topshiriq mazmuni: O'qituvchi kichik tajriba o'tkazadi yoki video ko'rsatadi: shisha stakanga ozroq suv quyiladi; uni deraza yoniga yoki quyosh tushadigan joyga qo'yiladi. Topshiriqda foydalanish uchun savollardan namunalar: Suv bug'langanda uni ko'ra olamizmi? Bulutlar qanday hosil bo'ladi, deb o'ylaysiz? Yomg'ir qanday paydo bo'ladi? Bu savollar orqali o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'onadi va ular o'z tasavvurlariga tayanib javob berishga harakat qilishadi. Shu tariqa o'quvchilar suv aylanishining boshlang'ich bosqichlari haqida fikr yuritishni boshlaydi.

Explore (Tadqiq qilish) bosqichida o'quvchilarni mustaqil yoki guruhsda ishlashga undash orqali mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borish, turli eksperimentlar o'tkazish yoki muammolarni yechish imkoniyati yaratiladi. Maqsad: o'quvchilar mustaqil yoki guruhsda kuzatishlar, tajribalar, muammolarni hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Jamoaviy ishlar, tajriba o'tkazish, resurslardan (kitob, internet) foydalanish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yanada faollashtirish imkoniyatini beradi. Tadqiq qilish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'quvchilar guruhlarga bo'linadi va suv aylanish jarayoni haqida kitob yoki slaydlar asosida kuzatish ishlari olib boriladi, guruhlar suv aylanishining to'rt bosqichini (bug'lanish, kondensatsiya, yog'in, oqim) rasm bilan ifodalaydi. Tajriba: Mini suv aylanishi modeli. Kerakli asbob-uskunalar: plastmassa zip-paket, biroz suv, ko'k rangli bo'yoq (yoki oziq-ovqat bo'yoq), quyosh tushadigan deraza, marker yoki flomaster. Tajriba jarayoni quyidagicha tashkil etiladi:

- o'quvchilar suvgaga ko'k bo'yoq qo'shib aralashtiradi;
- suvni zip-paketga quyishadi (taxminan 1/4 qismi);
- paketning tashqi tomoniga marker bilan quyosh, bulut va yomg'ir rasmini chizishadi;
- paketni derazaga yopishtirishadi;
- keyingi 1–2 kun davomida undagi o'zgarishlarni kuzatishadi.

Tajriba davomida quyidagi savollar asosida o'quvchilarni tahlil qilish, mulohaza yuritishga undash mumkin:

- Paket ichidagi suvgaga nima bo'ldi?
- Paket devorida hosil bo'lgan suv tomchilari nimani anglatadi?
- Ushbu tajribada suv aylanishining qaysi bosqichlarini ko'rdingiz?
- Sizningcha, bu jarayon tabiatda qanday sodir bo'ladi?

Mazkur tajriba asosida o'quvchilar bug'lanish, kondensatsiya va yog'ingarchilik bosqichlarini kuzatadi va ular haqidagi tushunchalarni aniqlaydilar.

Explain (Tushuntirish) bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan materialni tushuntiradi, o'quvchilar esa o'z fikrlarini ifodalaydi. Maqsad: o'quvchilarning yangi bilimlarini umumlashtirish, ilmiy tushunchalarni

aniqlashtirish. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi izohi, slayd, diagramma, tushunchalar xaritasi, o'quvchilar tomonidan tushuncha bayoni kabi usullardan foydalanish mumkin. Har bir guruh o'z rasmini taqdim etadi va tushuntiradi, o'qituvchi esa jarayonni birma-bir izohlaydi: bug'lanish → bulut hosil bo'lishi → yog'in → yerga tushgan suv yana daryoga oqadi. O'quv topshirig'i: Suv aylanishi bosqichlari. Maqsad: o'quvchilarga suv aylanishi jarayoni (bug'lanish, kondensatsiya, yog'ingarchilik, oqib tushish) haqida aniq tushuncha berish va bu bosqichlar o'rtaсидagi bog'liqlikni anglatish.

Topshiriq shakli: guruqli vizual tushuntirish. Topshiriq mazmuni: 1-qadam: o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi (har bir guruh 3–4 kishidan); 2-qadam: har bir guruhga suv aylanishining bir bosqichi topshiriladi: 1-guruh: Bug'lanish, 2-guruh: Kondensatsiya, 3-guruh: Yog'ingarchilik, 4-guruh: Yerga tushish va yana boshlanish; 3-qadam: har bir guruh o'z bosqichini rasmlar chizish orqali (plakatda yoki daftarda), qisqacha og'zaki tushuntirish bilan izohlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi quyidagi yo'naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin: Bu bosqichda suvga nima bo'ladi? Bu bosqich qayerda sodir bo'ladi: osmon, yerda yoki suvda? Bu bosqichdan keyin nima sodir bo'ladi? Bu jarayon qanday qilib doimo takrorlanib turadi? Natijada o'quvchilar suv aylanishi jarayonining har bir bosqichini tushunib oladi, ularni bir-biriga bog'lab tushuntira oladi va real hayotdagi misollar bilan izohlashga harakat qiladi (masalan: yomg'irdan keyingi namlik, ko'l ustida bug' chiqishi va h.k.).

Elaborate (Takomillashtirish, kengaytirish) bosqichida o'quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati beriladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llashadi, masalan, yangi vaziyatlarga moslashtirish, boshqa mavzular bilan bog'lash yoki murakkabroq masalalarni yechishni boshlashadi. Maqsad: yangi bilimlarni amaliyatda qo'llash, chuqurlashtirish. Bu bosqichda loyihami yishlar, muammoli vaziyatni hal qilish, rol o'ynash usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Faoliyat mazmuni: o'z yashash hududida suv aylanishining qanday namoyon bo'lishini surat yoki hikoya orqali ko'rsatish (1–2 o'quvchi voqeani rolik yoki rasm shaklida ko'rsatadi). O'quv topshirig'i: Suv aylanishi va hayot. Maqsad: o'quvchilar suv aylanishi jarayonining tabiatdagi ahamiyati, hayvonlar va o'simliklar hayotidagi roli, hamda inson faoliyatiga ta'siri haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladilar.

Topshiriq mazmuni: 1-qadam: o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi; 2-qadam: har bir guruhga quyidagi mavzulardan biri beriladi: 1-mavzu: Suv aylanishining o'simliklar hayotidagi roli, 2-mavzu: Suv aylanishi va yomg'irning foydasi (dehqonchilikda), 3-mavzu: Suv aylanishining hayvonlar hayotiga ta'siri, 4-mavzu: Inson faoliyati (masalan, ifloslanish yoki o'rmonlarni kesish) suv aylanishiga qanday ta'sir qiladi? 3-qadam: guruhlar rasm chizishadi, klaster yoki kichik sahna tayyorlashadi, shuningdek, boshqa guruhlarga o'z g'oyasini tushuntirishadi.

Bunda o'qituvchi quyidagi yo'naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin: Agar yomg'ir yog'masa, nima bo'ladi? Suv aylanishi bo'limasa, o'simliklarga qanday ta'sir qiladi? Siz yashayotgan hududda suv aylanishining qanday belgilarini kuzatgansiz? Insonlar suv aylanishini asrash uchun nima qilishlari kerak? Mazkur bosqich orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi, real hayotga bog'laydi va ekologik tafakkurni rivojlantiradi.

Dars mazmuni kengayadi, mavzu bo'yicha tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Evaluate (Baholash) bosqichida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi baholanadi. Shuningdek, o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadilar, o'qituvchi esa o'quvchilarning tushunishini baholash uchun turli baholash metodlarini, masalan, testlar, savollar yoki muhokamalarni ishlataladi. Maqsad: o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni baholash. Usullar: test, mini imtihon, yozma ish, o'zaro baholash va refleksiya. Mazkur yakuniy bosqichda quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi: 1-qadam: mini test (4–5 ta savol) o'tkaziladi; 2-qadam: o'quvchilarning rasmlari va hikoyalari baholanadi; 3-qadam: o'z-o'zini baholash: "Bugun nimani o'rgandim?" degan savolga javob yoziladi. O'quv topshirig'i: Suv aylanishi bo'yicha bilimimni sinab ko'raman. Maqsad: o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimlari va tushunchalarini mustahkamlash va baholash.

Topshiriq shakli: aralash turdag'i baholovchi topshiriqlar. To'g'ri yoki noto'g'ri (True/False).

Quyidagi gaplar to'g'ri yoki noto'g'riliqini aniqlang:

- A) Bulutlar bug'lanish natijasida hosil bo'ladi.
- B) Suv aylanishi faqat dengizlarda sodir bo'ladi.
- C) Yomg'ir yog'ishi – suv aylanishining bir bosqichi.
- D) Kondensatsiya – suvning bug'ga aylanish jarayoni.

Bo'sh joylarni to'ldiring. Quyidagi gaplarni to'ldiring:

- A) Suv yer ustidan _____ natijasida bug'lanadi.
- B) Suv bug'lari osmondag'i sovuq havo bilan to'qnashib, _____ hosil qiladi.
- C) Bulutlar og'irlashgach, _____ yog'adi.
- D) Yomg'ir suvi yana _____ oqib tushadi va jarayon davom etadi.

Chizma asosida tushuntirish: O'quvchilarga suv aylanishi tasviri (oddiy grafik rasm) beriladi. Vazifa: rasmda ko'rsatilgan 4 asosiy bosqichni nomlab, har biriga qisqa izoh yozing.

Og'zaki mini-prezentatsiya (ixtiyoriy): O'quvchi "Nega suv aylanishi tabiat uchun muhim?" mavzusida 1–2 daqiqalik og'zaki izoh beradi (individual baholash uchun). Bunda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakala-

rini quyidagi baholash mezonlari orqali aniqlash mumkin: Asosiy bosqichlarni aniqlay oldimi? Izohlar to'g'ri va mantiqiymi? Atamalarni to'g'ri ishlatdimi? O'z fikrini ravon va aniq bayon qila oldimi?

Yuqoridagilardan ko'rindaniki, 5E modelining bosqichlari o'zaro mantiqiy bog'liq bo'lib, har bir bosqich keyingisini samarali amalga oshirishga zamin yaratadi. Bu yondashuv dars jarayonini izchil, maqsadga yo'naltirilgan va o'quvchini faol jalb qilish tarzida tashkil etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 5E modeli zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida o'quvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yuvchi, faol ishtirok va chuqur anglashni ta'minlovchi samarali modellardan biridir. Ushbu model asosida darsni loyihalash o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish, muammo yechish kabi ko'nikmalarни shakllantirishga yordam beradi.

Nazariy jihatdan puxta asoslangan va amaliyotda to'g'ri qo'llanilgan 5E modeli darslar mazmunini boyitadi, o'quvchilarning bilimni egallash jarayonini bosqichma-bosqich chuqurlashtiradi hamda ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi. Shu bois, har bir zamonaviy pedagog o'z darslarini rejalashtirishda 5E modelidan maqsadli va kreativ foydalanishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son qarori. www.lex.uz/uz/docs/-6981085
2. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: Ped.f.n. ... dis. – T.: 2004. – 163 b.
3. Karlibayeva G.Ye. Innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish: Ped. fan. nomzodi ... dis. – T.: TDPU, 2012. – 136 b.
4. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: Ped. fan. nomzodi ... dis. – T.: TDPU, 2011. – 147 b.
5. Raxmonov I.Y. Geometriyani o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2012. – 160 b.
6. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. diss. (DSc). – T.: 2022. – 386 b.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.